

10-11-SINFLARDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH UCHUN INTERAKTIV METODLAR

Gulbahor Imomaliyeva

ToshDO'TAU ona tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi

3-bosqich talabasi

gulbahorimomaliyeva9@gmail.com / +998507057838

Annotatsiya : Mazkur maqolada 10-11-sinflarda og'zaki nutqni rivojlantirish uchun interaktiv metodlar tahlil qilinadi. Maqolada beyinstorming, rol o'ynash, guruh muhokamasi, munozara, kreativ taqdimot va so'z o'yinlari kabi metodlar orqali o'quvchilarning muloqot, fikrni aniq va tizimli ifodalash ko'nikmalarini qanday rivojlantirish mumkinligi ko'rib chiqiladi. Ushbu metodlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy izohlar berish va jamoaviy ishlarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Maqola o'qituvchilarga o'zaki nutqni rivojlantirishda interaktiv yondashuvlarning ahamiyatini tushuntiradi.

Kalit so'zlar: o'zaki nutq, interaktiv metodlar, beyinstorming, rol o'ynash, guruh muhokamasi, munozara, kreativ taqdimot, so'z o'yinlari, muloqot, fikrlash, nutq madaniyati.

Abstract: This article analyzes interactive methods for developing oral speech in 10th and 11th grades. Methods such as brainstorming, role-playing, group discussion, debate, creative presentations, and word games are explored in terms of how they can enhance students' communication skills, enabling them to express their ideas clearly and systematically. These methods promote critical thinking, logical reasoning, and effective teamwork. The article aims to highlight the importance of interactive approaches in developing oral speech in the classroom.

Keywords: oral speech, interactive methods, brainstorming, role-playing, group discussion, debate, creative presentations, word games, communication,

critical thinking, speech culture.

Аннотация: В данной статье анализируются интерактивные методы развития устной речи в 10-11 классах. Рассматриваются методы, такие как брейнсторминг, ролевые игры, групповые обсуждения, дебаты, креативные презентации и словесные игры, которые помогают учащимся развивать навыки общения и четкого выражения своих мыслей. Эти методы способствуют развитию критического мышления, логических рассуждений и эффективной работы в команде. Статья подчеркивает важность интерактивных подходов в развитии устной речи на уроках.

Ключевые слова: устная речь, интерактивные методы, брейнсторминг, ролевые игры, групповые обсуждения, дебаты, креативные презентации, словесные игры, общение, критическое мышление, культура речи.

Bugungi ta'lim tizimida o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin va aniq ifodalashlari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistondagi umumta'lim maktablarida 10-11-sinflarda o'zaki nutqni rivojlantirish, o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirish, ularning fikrini ravon, tushunarli va muomala qilishda samarali bo'lishiga xizmat qiladi. O'zaki nutqni rivojlantirish uchun interaktiv metodlar o'quvchilarni faollashtirishga, ularning nutq ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Mazkur maqolada 10-11-sinflarda o'zaki nutqni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan interaktiv metodlar, ularning foydalari va samaradorligi haqida so'z yuritamiz.

O'zaki nutqni rivojlantirishning ahamiyati. O'zaki nutq — bu o'quvchilarni o'z fikrlarini, qarashlarini, hissiyotlarini ifodalashda yordam beradigan, birinchi navbatda, muloqot va fikrlash jarayonlarini rag'batlantiruvchi vositadir.

10-11-sinflarda o'zaki nutqni rivojlantirish o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish;
2. Kritik fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirish,

3. Yozma va og'zaki ifodalanishdagi aniq va to'g'ri nutqni shakllantirish,
4. Tilni erkin va to'liq ishlatish imkoniyatlarini oshirish.

Interaktiv metodlar nima? Interaktiv metodlar — o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan metodik yondashuvlardir. Bu metodlar o'quvchilarning o'zaro muloqotini, jamoaviy ishlarni va muammolarni hal qilishni ta'minlash orqali o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. O'zaki nutqni rivojlantirishda interaktiv metodlar o'quvchilarni o'z fikrlarini ifodalashda qulaylik yaratadi, nutq madaniyatini oshiradi va ularni fikrlashga undaydi. Quyida ushbu metodlardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Beynstorming (Brainstorming). Beynstorming metodi guruhdagi har bir o'quvchi o'z fikrini erkin va to'liq ifodalashga imkon beradi. O'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan berilgan muayyan mavzu bo'yicha fikrlar to'plami shakllanadi. Har bir o'quvchi o'z fikrini yozib chiqadi yoki ovoz chiqarib aytadi. Bu metod o'quvchilarda jamoaviy fikrlash va o'z fikrini mustaqil ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. "Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy universitetlar" mavzusida beynstorming o'tkazish, o'quvchilarni yangicha fikrlashga, turli nuqtai nazarlardan qarashga undaydi.

Rol o'ynash (Role-play). Rol o'ynash metodida o'quvchilar turli rollarda muloqot qilishadi. Bu metod o'quvchilarni real hayotdagi turli vaziyatlarga tayyorlashda foydalidir. O'quvchilar o'zlarining rollari orqali boshqalar bilan muomala qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu metod o'quvchilarni ishonchli nutq so'zlashga o'rgatadi va shaxsiy rivojlanishlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Gruhlararo muhokama (Group discussion). Guruh muhokamasi o'quvchilarga o'z fikrlarini ravon va aniq ifodalash imkoniyatini beradi. Bu metodda o'quvchilar o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rishadi. Mazkur metod o'quvchilarni erkin va tizimli ravishda muloqot qilishga o'rgatadi. Misol uchun, "Iqlim o'zgarishining atrof-muhitga ta'siri" mavzusida guruhda muhokama o'tkazish, o'quvchilarni kompleks masalalar bo'yicha fikrlashga undaydi.

Fikr almashish (Debate). Munozara (debate) metodida o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, bir-birlariga qarshi fikrlarni ilgari surishadi. Bu metod o'quvchilarda fikrni tahlil qilish, dalillarni keltirish va dunyoqarashni kengaytirish qobiliyatini rivojlantiradi. Munozara davomida o'quvchilar o'z fikrlarini izohli va ishonchli tarzda ifodalashni o'rganadilar. Misol uchun, "Yo'l harakati qoidalariga yangiliklar kiritish kerakmi?" mavzusida munozara tashkil etish o'quvchilarga argumentlarni shakllantirish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ taqdimot (Creative presentations). Kreativ taqdimot metodida o'quvchilar biror mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlashadi va uni sinfda boshqa o'quvchilarga taqdim etishadi. Bu metod o'quvchilarga nafaqat o'z nutqini rivojlantirish, balki auditoriya bilan muloqot qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

So'z o'yinlari (Word games). So'z o'yinlari o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga va nutqni rivojlantirishga undaydi. O'quvchilar so'zlar bilan turli o'yinlar o'ynab, o'zlarining tezkor fikrlash qobiliyatini oshiradilar. Bu metodni o'qituvchi dars jarayonida qiziqarli tarzda tashkil etishi mumkin.

10-11-sinflarda o'zaki nutqni rivojlantirish uchun interaktiv metodlar ta'lim jarayonida samarali yondashuvdir. Bu metodlar o'quvchilarda o'z fikrlarini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'zaro muloqot va jamoaviy ishlashni ta'minlaydi, fikrlarni tahlil qilish va mantiqiy ifodalashni o'rgatadi, nutq madaniyati va nutq uslublarini shakllantiradi hamda nutq madaniyatini oshiradi. O'qituvchilar bu metodlarni to'g'ri va samimiy qo'llash orqali o'quvchilarda yuqori darajadagi o'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu o'zgarishlar nafaqat o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'. Hoshimov, I.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi. - Toshkent-2003.
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2012. - 48-bet.

3. Ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullari.
https://fayllar.org/ingliz_tilini_oqitishning_innovatsion_usullari.html
4. O'qituvchi nutq madaniyati. https://fayllar.org/oqituvchi_nutq_madaniyati.html
5. Gazieva S. T. Modern technology in learning foreign languages //Academic research in educational sciences. - 2020. - №. 3. - C. 1272-1275.